



ИЧКИ ИШЛАР ОРГАНЛАРИ ХОДИМЛАРИ FAOLIYATIDA “FOZIL ODAMLAR SHAHRI” ASARINING AHAMIYATI

Utepov Dilmurod Sheraliyevich,

*O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Huquqbuzarliklar profilaktikasi
faoliyati kafedrasida katta o‘qituvchisi, mayor*

Fazliddinova Farida Nasriddin qizi,

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi kunduzgi ta’lim kursanti

So‘nggi yillarda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar natijasida Ichki Ishlar Organlariga, umuman tizimga bo‘lgan e’tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Islohotlarning natijasi sifatida davlatimiz rahbari hamda Ichki ishlar vaziri tomonida qabul qilingan bir qator farmon, qaror, buyruqlarni keltirib o‘tishimiz mumkin. Jumladan, davlatimiz rahbari tomonidan 2021-yil 2-aprelda qabul qilingan “Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori bilan “Ichki ishlar organlarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish konsepsiyasi” tasdiqlandi. Ushbu konsepsiyada Ichki ishlar organlarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni samarali tashkil etish tizimini yanada takomillashtirish, xodimlar ma’naviy salohiyati hamda mafkuraviy immunitetini kuchaytirish, ularning ongida Vatan taqdiri hamda kelajagi uchun daxldorlik tuyg‘usini yanada mustahkamlash kabi ulug‘ maqsadlar o‘z aksini topgan.

Ichki ishlar xodimlarida xizmat burchiga sadoqat va mas’uliyat hissini oshirish Vatanga sidqidildan xizmat qilish sharaflari burch ekanligini ongu-shuuriga singdirishga kitob mutolaasi muhim va ta’sirchan vosita hisoblanadi. Tizim xodimlari o‘rtasida kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, ularning intellektual salohiyati, siyosiy-huquqiy bilimni oshirish ma’naviy dunyoqarashini kengaytirish, ulug‘ ajdodlarimizning ma’naviy merosini, ularning noyob asarlari, ibratli hayoti va ijtimoiy faoliyatini chuqur o‘rganish maqsadida “Eng yaxshi kitobxon” tanlovi Ichki ishlar organlari xodimlari o‘rtasida muntazam o‘tkazib kelinmoqda.

Bundan tashqari Ichki ishlar vazirining 2021-yil 3-iyuldagi buyrug‘iga asosan Ichki ishlar organlari xodimlari o‘qishi uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar ro‘yxati tasdiqlangan.

Ushbu ro‘yxatda Abu Nasr Forobiyning “Fozil odamlar shahri” asari ham mavjud bo‘lib, ushbu asar Ichki ishlar organlari xodimlari uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Avvalambor ushbu nodir asarning muallifi haqida so‘z yuritadigan bo‘lsak, buyuk mutafakkir, o‘z davrining yorqin yulduzi asli ismi Muhammad Ibn Muhammad Ibn Tarxon bo‘lgan Abu Nasr Forobiy 873-yilda Turkistonning Forob degan joyida tug‘ilgan. Alloma dastlab Forobda o‘qigan, keyinchalik Buxoro va Samarqandda tahsil olgan. Umrining so‘nggi yillarida esa Xalabda keyinroq Damashqda yashagan



hamda shu yerda 950-yilda vafot etgan. Arabiynavis olimlardan biri Zahiriddin Abulhasan Zayd Al Bayhaqiyning ma'lumotlariga qaraganda, islom o'lkalari olimlari orasida bundan oldin bunchalik o'tkir odam bo'lmagan. Shuning uchun ham Arastudan keyin "Sharq Arastusi"-Ikkinchi mual-lim deb nom olgan. Abu Nasr Forobiy 160 dan ortiq asarlar yaratgan. Jumladan "Inson ta'nasining a'zolari haqidagi" risolasi kata ahamiyatga ega. Bu asar tibbiyot sohasidan ham xabardor ekanligining hamda Abu Ali Ibn Sinoning o'tmishdoshi bo'lganligining tasdiqidir. Bundan tashqari "Musiqqa haqida katta kitob" bilan O'rta asrning yirik musiqashunosi sifatida maydonga chiqqan, alloma musiqaga doir kitob yozibgina qolmay, balki o'zi ham bir qancha musiqa asboblarini chalishni bilgan. O'rta asr fanining taraqqiyotida Forobiyning ilmlar tasnifi muhim rol o'ynaydi. "Ilmlarning tasnifi haqida", "Ilmlarning kelib chiqishi haqida" risola-larida o'sha davrda ma'lum bo'lgan 30 ga yaqin ilm sohasining tartibi, ta'rifi va tafsilotini bergan.

Buyuk mutafakkirimizning falsafa sohasidagi eng yirik asari bu "Fozil odamlar shahri"dir. Ushbu asar ma'naviy-axloqiy ruhdagi asar hisoblanib, olim ushbu asarda baxt-saodatga yetishuv yo'llari, fozil jamiyat, fazilatli xalqlar, adolat, fozil shahar rahbari qanday sifatlarga ega bo'lishi kerakligi haqida so'z yuritgan.

Jumladan, Forobiyning fikricha yomonliklar ham erkin istak va erkin tanlov bilan sodir qilinadi. Istak niyatlar yaxshi bo'lsagina, shahar aholisi ma'naviy kamol topib, baxt-saodatga yetisha oladi hamda haqiqiy baxt-saodatga yetishuv yo'lida bir-birlariga yordam berib yaxshi, go'zal ish amallar qiluvchi odamlar yashaydigan shahar esa fozila shahar, ya'ni fozil odamlar shahri hisoblanadi. Barcha shahar-larda baxt-saodatga yetishuv yo'lida go'zal xayrli ishlarga bir-biriga yordam beruvchi xalqlar esa fazila, ya'ni fazilatli xalqlardir.

Bundan tashqari alloma yuqorida ta'kidlab o'tilgan fozil odamlar shahriga rahbarlik qiluvchi shaxs ya'ni, rais a'zoning sifatlari haqida ham ma'lumot berib o'tgan. Uning fikricha, inson badanining rais a'zosi yurak hisoblanib, u tabiatiga ko'ra boshqa a'zolari boshqaradi, shu sabab yurak eng a'lo va eng yuksak a'zo hisoblanadi. Xuddi shunday shahar-jamiyatning rahbari ham har tomonlama yuksak darajadagi shaxs hisoblanib, o'z navbatida eng barkamol boshliq hisoblanadi. U o'z yaqinidagi mansabdorlarni boshqaradi. Raisga ya'ni rahbarga bo'ysunuvchi yaqin a'zolar ham axloqan va ma'nan rivojlangan bo'lishi hamda o'zidan quyida turuvchi boshliqlarni boshqara olishi kerak. Forobiy yurak inson tanasidagi nbosh a'zo sifatida boshqa a'zolarining mavjudligini, tirikligini, tartibli nva bir me'yorda ishlashini ta'minlabgina qolmay, biror a'zo kasallansa uning holatini yaxshilashga yordam berishini, shunga o'xshagan holda biror bir shahar- davlatning boshlig'i ya'ni rahbari ham o'z qo'l ostidagi biror mansabdor shaxsning faoliyati izdan chiqsa, uni tuzatishini aytib o'tgan. Shuningdek, Forobiy rahbar bo'lishning ikkita eng asosiy shartini ham keltirib o'tadi.

Unga ko'ra: duch kelgan har qanday odam shahar-davlatga rahbarlik qilolmaydi. Shuning uchun avvalo 1) Inson tabiatida rahbarlik qilish qobiliyati (ma'naviy aqliy yetuklik) bo'lishi zarur. 2) Bunday odam yuqori mavqei, insoniy fazilatleri, qobiliyatlari bilan xalq orasida hurmat qozongan bo'lishi zarur. Rahbar-lik sohasida tajriba orttirishi ham muhim. Bundan tashqari olim ushbu asar orqali adolat, adolatli



jamiyat, shuningdek, fozillar shahri hokimining eng muhim bo'lgan o'n ikkita sifatini keltirib o'tgan. Unga ko'ra fozillar shahri hokimi avvalo to'rt muchasi sog'lom bo'lib, o'ziga yuklangan vazifalarni bajarishida biror a'zosidagi nuqsoni xalal bermasligi lozim. Aksincha u sog'-salomatligi tufayli bu vazifalarni ham oson bajarishi lozim.

Ikkinchidan, bunday shahar hokimi tabiatan nozik farosatli bo'lib, suhbatdoshining so'zlarini, fikrlarini tez tushunib, tez ilg'ab olishi, shu sohada umumiy ahvol qandayligini ravshan tasavvur qila olishi zarur.

Uchinchidan, u anglagan, ko'rgan, eshitgan narsalarini xotirasida to'la-to'kis idrok eta olishi, barcha tafsilotlarni unutmasligi zarur.

To'rtinchidan, u zehni o'tkir, zukko bo'lib, har qanday narsaning b ilinar-bilinmas alomatlarini va u alomatlar nimani anglatishini tez bilib, sezib olishi zarur.

Beshinchidan, u fikrini ravshan tushuntira olish maqsadida fasohatli ifodalay olishi zarur.

Oltinchidan, u ustozlardan ta'lim olishi, bilim-ma'rifatga havasli bo'lishi kerak.

Yettinchidan, taom yeyishda, ichimlikda, ayollarga yaqinlik qilishda ochofat emas, aksincha o'zini tiya oladigan bo'lishi darkor.

Sakkizinchi u haq va haqiqatni, odil va haqgo'y odamlarni sevadigan, yolg'onni va yolg'onchi odamlarni yomon ko'radigan bo'lishi zarur.

To'qqizinchi, u o'z qadrini biluvchi nomus-oriyatli odam bo'lishi, pastkashliklardan yuqori turuvchi, tug'ma oliyhimmat bo'lishi, ulug' oliy ishlarga intilishi zarur.

O'ninchidan, bu dunyo mollariga, dinor va dirhamlariga qiziqmaydigan bo'lishi zarur.

O'n birinchi tabiatan adolatparvar bo'lib, odil odamlarni sevadigan, istibdod va jabr-zulmni, mustabid va zolimlarni yomon ko'ruvchi, o'z odamlariga ham, begonalarga ham haqiqat qiluvchi, barchani adolatga chaqiruvchi, nohaq jabrlanganlarga madad beruvchi bo'lishi kerak.

O'n ikkinchidan, o'zi zarur deb hisoblagan chora-tadbirlarni amalga oshirishda qat'iyatli, sabotli, jur'atli, jasur bo'lishi, qo'rqqoqlik va hadiksirashlarga yo'l qo'ymasligi zarur.

Ushbu asar har bir shaxsda yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantiribgina qolmay, balki uning har tomonlama mukammal va yuksak inson bo'lib yetishishiga xizmat qiladi. Ayniqsa qaysi soha bo'lishidan qat'iy nazar, o'sha sohaning rahbarlari shuningdek, Ichki ishlar organlarida faoliyat yuritayotgan rahbar xodimlar ham o'z faoliyatlarida Forobiy ta'kidlab o'tganidek, adolat bilan ish tutsalar, shu rahbarlar rahbarlik qilayotgan shahar-davlat hamda jamiyat farovon va tinch bo'ladi, har xil noxush hodisalar shuningdek, huquqbuzarliklar sodir etilishining oldi olinadi. Bundan tashqari ushbu nodir asar shaxsda insonga xos bo'lgan eng oliy fazilatlarini jumladan, adolat, sadoqat, himmat kabi xislatlarni shakllantiradi. Shuningdek, Ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan o'qilishi kerak bo'lgan badiiy asarlar ro'yxatidan ushbu noyob asarning joy olganligi ham asar qanchalik qiymatga ega ekanligidan dalolat beradi. Shuning uchun ham ushbu asarni mutolaasini kuchaytirish maqsadida aholi orasida xususan, Ichki ishlar organlari xodimlari o'rtasida ham yanada kengroq targ'ib qilish ishlarini amalga oshirishimiz darkor.



Buning uchun ushbu asar doirasida har kitobxonlik tanlovlari hamda viktorinalar o'tkazib boorish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Ichki Ishlar Organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5050-son 2021-yil 2-aprel.

2. Ichki Ishlar Vaziri buyrug'i 2021-yil 3-iyul

3. Abu Nasr Forobiy Fozil odamlar shahri. -T Yangi asr avlodi, 2018. -B. 318.

4. Югай, Л. Ю. "КРИМИНАЛИСТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ БИОМЕТРИЧЕСКИХ ДАННЫХ, СОДЕРЖАЩИХСЯ В СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЯХ." А437 Актуальные проблемы борьбы с преступлениями и иными правонарушениями: материалы двадцатой международной научно-практической конференции/под ред.. 2022.

5. Югай, Людмила Юрьевна. "БИОМЕТРИЧЕСКИЕ ТЕХНОЛОГИИ КАК ИНСТРУМЕНТ В БОРЬБЕ С ТЕРРОРИЗМОМ И ЭКСТРЕМИЗМОМ BIOMETRIC TECHNOLOGIES AS A TOOL IN THE FIGHT AGAINST TERRORISM AND EXTREMISM." ЭКСТРЕМИЗМ–НОВЫЕ ВЫЗОВЫ РЕГИОНАЛЬНОЙ БЕЗОПАСНОСТИ (2022): 81.

6. Югай, Людмила. "Вопросы классификации биометрической идентификации личности в эпоху цифровизации." Актуальные вопросы и перспективы цифровизации судебно-правовой деятельности 1.01 (2022): 181-187.

7. Людмила, Ю. Г. А. Й., and Хагани ГАДЖИЕВ. "Использование цифровой экспертизы при доказывании факта распространения ложной информации в интернете." Юрист Ахборотномаси 2.1 (2021): 208-218.

8. Югай, Л. Ю. "Биометрическая идентификация личности по изображению лица человека: опыт Республики Узбекистан." (2023).

9. Югай, Людмила. "Судебно-экспертная деятельность в Республике Узбекистан в эпоху цифровизации." Современные тенденции развития цифровизации в сфере юстиции 1.1 (2022): 35-40.